

*Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish,
jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun muhit va shart-sharoit yaratish zarur.
Shavkat MIRZIYOYEV*



IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

YANGI 2019-YIL BARCHAMIZGA MUBORAK BO'L SIN!

HURMATLI PROFESSOR-O'QITUVCHILAR,
INSTITUTIMIZ XODIMLARI VA TALABALAR!

Mana, 2019-yil ham kirib kelmoqda. Poyoniga yetib borayotgan 2018-yil barchamizning faoliyatimizda bir qancha yutuqlarni olib kirdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. "Faol tadbirdorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash" yili deb e'lom qilingan 2018-yil Vatanimiz taraqqiyotiga, iqtisodiy optimizning barqaror rivojlanishiga, el-yurtimiz hayot darajasining yuksalishiga salmoqli hissa qo'shgani, xosiyatlari va barakali bo'lganini shukronlik bilan ta'kidlashimiz lozim.

Poyoniga yetib borayotgan yil ham institutimiz professor-o'qituvchilar, talabalari uchun samarali yil bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq artisti, professor, xushovoz san'at sohibi Xayrulla Lutfullayev "Mehnat shuhrati" ordeni, institutimizning "Sahna nutqi" kafedrasasi o'qituvchisi Nigora Karimboyeva "Do'stlik" ordeni, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist", "Qoraqalpog'iston xalq artisti" O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali "Rejissyorlik va aktyorlik mahorati" kafedrasasi dotsenti Sarsenbay Baltaniyazovlar "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan bo'lsalar, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Oygul Ahmedova "Oly ta'lim muassasalarining eng yaxshi pedagogi" respublika tanlovi g'olib bo'ldi. Bundan tashqari 17 ta o'quv qo'llanma, 4 ta darslik, 2 ta monografiya chop etilgan bo'lsa, 1 nafr professor, 6 nafr o'qituvchilar dotsent ilmiy unvonlarini, 4 nafr esa PhD ilmiy darajasini qo'lga kiritib, institutning ilmiy salohiyatini oshirishda o'z hissalarini qo'shdilar.

Yana eng quvonarli natijalarimizdan biri O'zbekiston Respublikasining iqtidorli talabalar uchun ta'sis etilgan stipendiyalarga uch nafr talabamiz uch yo'nalishdagi davlat stipendiyalarining sohibiga aylanishidir. Bu albatta institut jamoasiga katta quvonch va faxr tuyg'ularini baxsh etdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti "Kino, televideniye va radio rejissyorligi" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Fotih Nasimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi, Xalq ijodiyoti fakulteti "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Sabina Berdiyeva Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi, Xalq ijodiyoti fakulteti "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Shahnoza Rustamaliyeva O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi stipendi-

yasiga loyiq deb topildi. Biz kelejakda ularni bundan-da yuksak yutuqlarga erishishlariga ishonamiz.

Institutda malakali kadrlar tayyorlash maqsadida mavjud kamchiliklarni o'rganish, tahlil qilish va ularning yechimini topishga qaratilgan "Yo'l xarita"larini ishlab chiqish, aniq chora-tadbirlar belgilab, jamoamiz bilan ishlash sur'atimi oshirish asosiy maqsad qilib olindi va bunga jiddiy kirishildi. Institutning barcha professor-o'qituvchilari 2018-2020 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"ni o'zlarining xohishlariga ko'ra ishlab chiqdilar. Bunda uch yo'ldan birimi har bir o'qituvchi o'zi ixtiyoriy ravishda o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlashdi. Bu uch yo'l quyidagilardan iborat edi: 1. Ijodkor professor-o'qituvchilar tomonidan faxriy unvonlardan birini olishga erishish. 2. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan ilmiy unvonlarga ega bo'lish. 3. Bu yo'l haqiqiy ilm yo'li, ya'ni o'z sohasi bo'yicha tadqiqotlar olib borib, fan doktori ilmiy darajasini olishdir. Mazkur "Yo'l xaritasi" har bir professor-o'qituvchi tomonidan imzolanib, uch yillik reja ishlab chiqildi. "Yo'l xaritasi" har bir professor-o'qituvchining uch yilda amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalar bo'yicha "qasamyodi" sifatida belgilandi. Demak, har birimiz o'z qasamyodimizga sodiq qolishimiz shart!

2019-yil institut professor-o'qituvchilari, xodimlari va talabalari oldida o'ta mas'uliyatli yil hisoblanadi. Biz uchun ushbu yil yuksak malakali madaniyat va san'at xodimlarini tayyorlashni yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish yili bo'ladi. Ayniqsa, talabalar ma'naviy olamini shakllantirish, ularning ijtimoiy faolligini, siyosiy madaniyatini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida kun tartibida turadi.

**Hurmatli professor-o'qituvchilar,
xodimlar va talabalar!**

Yangi yil kirib kelishiga sanoqli kunlar qolgan mana shu hayajonli damlarda barchamizga Yaratgandan ezgu orzu-maqsadlarimizning ro'yogga chiqishini, xonardonlarimizga qut-baraka berishini chin qalbimdan so'rayman. Kirib kelayotgan yangi yil yurtimizga, barcha-barcha oilalarga baxtu saodat va omad keltirsin. Har birimizning pok niyatlarimiz va tilaklarimiz ijobat bo'lsin.

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

Ibrohim YO'L DOSHEV,
institut rektori
filologiya fanlari doktori, professor



**Muhammad YUSUF,
O'zbekiston xalq shoiri**

YANGI YIL KECHASI

Ko'ngil ma'yus tortdi yilning so'ngida,
Bilmam, nimang bilan sehrladning, qor.
Bugun kupper-kunduz ko'zim o'ngida,
Yana bir yoshimni o'g'irlading, qor.
Qirqinchi qasrimga o'taymi endi,
Kechagi yoshtagim ertakmi endi?..

Bahorim yetgudek qo'lim uzatsam,
Yetolmay dilimni ne deb yupatsam.
Laylakqor, azizim, g'alat bayram bu –
Kulib kuzatsammi, yig'lab kuzatsam...
Dardim jim ichimga yutaymi endi,
Kechagi yoshtagim ertakmi endi?

So'rsang, sevinchimdan o'kinchim ko'proq,
Sendan-da kumushroq sochimdag'i oq.
Yilim kelmay turib, yilim ketmoqda,
Ko'zda tabassum-u kiprikda titroq.
Men ham sal shoshdim-da, qaytaymi endi,
Kechagi yoshtagim ertakmi endi?

Yangi yil,
Kelaver qanday kelsang ham,
Kimlar yetdi senga, kimlar yetmadi.
Sen yangi yo'ldoshsan, sen yangi hamdam,
Yo'qlab kelganingni o'zi bir bayram.
Qulog'ingga bir gap aytaymi, endi,
Kechagi yoshtagim ertakmi, endi...

Hayotda shunday insonlar borki, ularning xotirasi ezgu amallari bilan birga yashaydi. Yillar bu xotiralarni yanada mustahkamlab, tarixning zarvaraqlariga muhrlab boraveradi. Fidokor inson, mohir ijodkor, taniqli dramaturg, Xalq shoiri, O'zbekiston san'at arbobi Turob To'la tavalludiga bu yil 100 yil to'ladi. Bebaho ijod pallasining chechaklarida kurtak ochgan – Bir asrlik umr fursati yetib keldi.

Turob To'la qo'shiqchi shoir sifatida tanilgan. Ijodkorning teatr sahnasi uchun yozgan pyesalari asosida sahnalashirilgan spektakllar minglab tomoshabinlarning ko'nglidan joy egallab, sanoqsiz olqishlarga sazovor bo'ldi. Kinossenariylari asosida suratga olingan filmlar hali hamon qimmatini yo'qotmay kelmoqda. "Maftuningman", "Nodirabegim", "Furqat", "Shashma-qom"...

Otashqalb shoirning yuzdan ortiq she'rlari qo'shiqqa aylanib, insonlar ruhiyatiga zavq, estetik joziba ulashadi. "Maftuningman", "Sumbula", "Do'ppi tikdim" – bu qo'shiqlar yuraklarda yashaydi, har ijrosida qaytadan jonlanadi, ko'ngillarni betakror hissiyorlarga to'ldiradi, yoqimli ohanglar va xalq mulkiga aylangan bu betakror qo'shiqlar doimo go'zal bayramlar va badiiy kechalarda yangraydi, ko'ngillarga

BIR ASRLIK UMR

quvonch ulashadi.

Shoirning go'zal she'rlaridan birida mana bunday satrlar bor:

...Aytgil, dedim bormi tag'in olamda baxtiyor;

Xumor boqib "mening bilan sen begumon", deding.

Bu baxtga qilsam arzigay koshona armug'on,

Nozim bilan Muhabbatning bo'lsin omon, deding!

Ishq-muhabbat tarannum etilgan bu go'zal she'rning ohangi ham, so'zları ham samimiyl, haroratl! Oshiq ma'shuqasidan dunyodagi baxtiyor odamlar bor yo'qligini so'rayotir. Ma'shuqa esa charos ko'zlarini tikib xumor boqib javob beradi. Habib suyukli habibasining tilidan dunyodagi eng baxtiyor odamlar aynan o'zları ekanligini eshitib, bu baxtiyorlik evaziga bir koshona barpo etsam arziyi, deya quvonchidan olamga sig'maydi. Ma'shuqa ham vafolisiga:

"Nozim bilan Muhabbatning bo'lsin omon", — deya lutf etadi.

Ya'ni, bu misrada "nozim ila muhabbatning salomat bo'lsin, dunyo turguncha tursin", degan ma'no

anglatmoqda. Yanada teran boqsak, bu yerda go'zal ishora - tanosub san'ati ham mahorat bilan qo'lllanganki, bu she'rغا alohida tarovat bag'ishlagan. Shoir aytayotgan "Nozim" bilan "Muhabbat" bu – ikki oshiq qalbning duru-javohirlari, ishq egalarining farzandi, arjumandlari va ularning ismlaridir.

Turob To'laning munosib izdoshlari, ijod yo'lining davomchiları – farzanlaridir! Qizi o'sha mashhur "Maftuningman" filmidagi xorazmlik Sharif Jumaniyozovning singlisi Muhabbatxonni esladingizmi?! Ana shu qizcha bugun katta olima, teatr munaqqidi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor – Muhabbat To'laxo'jayevadir!

O'g'li aktyor, rejissor, ssenarist, mohir multiplikator – Nozim To'laxo'jayevni esa "Alpomish", "Yaratganga shukr", "Osmondagi bolalar", "O'tov", "Ilova" filmlaridagi o'ziga xos rollari orqali bilamiz.

Opa-ukaga diqqat bilan qarasangiz ularda o'sha zabardast ijodkorni ko'rgandek bo'lasiz. O'sha chehra, o'sha nigoh, o'sha ko'zlar...

Shoirning farzndlari bugun xalq xizmatida kamarbasta. O'zbek san'ati



rivoji uchun hissa qo'shishmoqda.

Ushbu satrlar mualifi sifatida, Xalq shoiriga cheksiz hurmatimni bildirib, aziz ustozim Muhabbat va Nozim To'laxo'jayevlarning otasi tavalludining 100 yilligi munosabati bilan chin qalbdan muborakbod etaman! Ularga sog'lik, oilalariga xotirjamlik, ilmiy-ijodiy ishlariga rivoj tilayman!

**Qamariddin RAJABBAYEV,
O'zDSMI 4-bosqich talabasi**

Студенческое радио «ЎзДСМИ радиоси»: проводая 2018 и встреча 2019 год



Созданное в Государственном институте искусств и культуры Узбекистана студенческое радио с объединяющим названием «ЎзДСМИ радиоси» подводит итоги года уходящего. На данный момент в его команду входят 7 студентов кафедры «Операторского мастерства и звукорежиссуры», которые учатся на специальности «Звукорежиссура кино, ТВ и радио», но их всех объединяет любовь к институту и профессиональный интерес к своей специальности.

Наша целевая аудитория – студенты. Наши эфиры – кипучий сплав из современной музыки, университетских новостей, программ о культуре и жизни вуза. С преподавателями и студентами мы обсуждаем проблемы, связанные с учебой и экзаменами, модой, отдыхом. Все это ежедневно находит свое отражение в программах, которые звучат в перерывах между занятиями.

На протяжении всего 2018 года радио «ЎзДСМИ радиоси» рассказывало своим слушателям о последних событиях и анонсах жизни ГИИКУз: всех крупных мероприятиях, визитах гостей и общественной жизни института. Новый сезон принес свежие идеи и новые голоса ведущих: программу «Поздравления», «Teacher's favourites», а бархатный голос Баходыра Магдиева заставляет прислушиваться ко всем новостям института, объявлениям и интересным фактам на территории всего нашего творческого кампуса.


Особое место занимает учебная студия звукозаписи, которой руководит преподаватель кафедры «операторское мастерство и звукорежиссура» Ориф Рахимжанов. Именно на этой студии и происходит всё творческое обрамление радио эфира.

Погруженность в языковую среду даже на большой перемене, а также приподнятое новогоднее настроение и радостную атмосферу праздников обеспечивают музыкальное оформление, составленные R-джеями «ФанФар FM» а точнее самими студентами, которые учитывают запросы своих сверстников.

Наши R-джеи профессионально растут и набираются опыта. Все рабочие вопросы они решают с преподавателями института и своими наставниками.

У студенческого радио «ЎзДСМИ радиоси» есть много идей и задумок и на следующий календарный год, который, надеемся и желаем всем, будет наполнен интересными событиями, увлекательными проектами и праздничными мероприятиями.

**Кууаныш ЖУМАНОВ,
Магистр направления
«Звукорежиссура кино,
ТВ и радио»**



«МЕН АБАЙДЫ ЯДКА БИЛГЕН ХАЛЫҚПАН»

Мен жазбайман қосықты ермек ушын,
Бар-жоқ өртекті термек ушын,
Көкіргегі сезимли тили жастық,
Жаздым үлгі жасларга бермек ушын.
(Абай Қунанбай улы)



баянатлар жасады.

Шынында да, Абай Қунанбай улының даналық сөзлөринде үлкен мәни бар. Мәселен оның мына қатарларын алып қарайық:

— деп, ҳәр бир инсанды

**Әсемпаз болма ҳәр неге,
Өнерпаз болсаң ҳәр қалан,
Сен де бир гербши дұньяга,
Кетигин тапта бар қалан,**

әмирде өз жолын табыға ийтермелейди. Оның шығармаларын жаслар арасында үгіт нәсиятлау, жасларды ана ўатанға муhabbat сезими менен өсиүте ҳәм әдеп-икрамлы болығуға шакырады. Кеше соңында студент жаслар шайырдың дөретиүшлигинен көркемлеп оқыды. Әдебий кеше сазсәубет пенен даўам етти.

**Арухан
ПАХРАТДИНОВА,
ӨЗМКӨМИ
Нөкис филиалы
Билимләндирүйдің
сапасын қадағалау
болими бас қәнигеси**

Yil davomida institutimizning Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan bir qancha xayrli ishlardan amalga oshirildi. Yoshlar ittifoqi yetakchilari iqtidorli va tashabbuskor talabalar bilan birgalikda katta loyihalarga qo'l urdi. Institutimizning eng zukko va bilimdon yetti nafar talabalarining 35 foiz shartnoma pullari, yana uch nafar talabalar Yoshlar ittifoqining "Talim granti"ni qo'lga kiritib, shartnoma pullarining 50 foizi Yoshlar ittifoqi tomonidan to'lab berildi. Iqtidorli talabalardan yana biri Sarvinoz Saksonova "Yosh kitobxon" Respublika tanlovida g'olib bo'ldi.

Yana bir iqtidorli talaba Qayumxo'jayev Odilxo'ja birinchilardan bo'lib "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Muxlisa Azizova esa "Yoshlar ittifoqi" mukofotini qo'lga kirdi. Jumagul Nishanova "O'zbekiston bahori" festivalida g'olib bo'lgan bo'lsa, yosh, xushovoz baxshilarimiz Axror Xushvaqtov va Sarvinoz Sayetjanovalar "Boysun bahori" Xalqaro festivalida "Eng yaxshi yosh ijrochilar" deb topildi. "Prolog-2018" Xalqaro kinofestivalida ham bir qancha talabalarimiz zafar quchganligi esa yana bir quvonarli voqeaboldi.

Institutimizning Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Bobur Ubaydullayev va "Yosh kitobxon" Respublika tanlovi g'olib Sarvinoz Saksonovalar tashabbusi bilan tashkil etilgan "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti kunlari" loyihasi doirasida yil davomida Respublika bo'ylab ko'plab xayriya konser dasturlari tashkil etildi. Jumladan, Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo va Surxondaryo

viloyatlarining eng olis tumanlarda ushbu loyiha amalga oshirildi. Dasturga muvofiq loyihada katta xayriya konsertri, kitobxonlik targ'iboti, spektakl namoyishi, tadbirkorlik seminarlari va davra suhbatlari tashkil etildi. Institutimizning iqtidorli talabalaridan tashkil topgan "Istiqbol yoshlari" jamoasi ilk konser dasturini Fargona viloyatining Quva tumanidan boshladi. "Xalq bilan birga bo'l!", - shiori ostida o'tkazilgan ushbu xayriya konser dasturi butun Farg'ona ahlida katta qiziqish uyg'otdi. Tadbirning ochilish marosimi Quva tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi da, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning xotirasiga bag'ishlangan "Ozodlik" nomli spektakl bilan boshlandi.

Xalqimizning Mustaqillik yo'lida chekkan zahmatlari, ajdodlarimiz, jumladan, Qodiriy, Fitrat, Cho'lpion, Behbudiy va shu singari yetuk adiblarimizning nohaqlik yo'lida qatag'on qilinishining oqibatlari, o'sha davrdagi chirkin hayot va tuhmatlar aksi sahnada jonli

YOSHLAR — ITTIFOQI QANOTI



ijroda tomashabinlarga havola etildi. Qiziqarli va ta'sirli syujet mahoratlari ijro bilan uyg'unlashdi. Yig'ilganlarning olqishlari va ko'zlaridagi yosh tomchilari talaba-yoshlarni to'lqinlantirib yubordi. Kunning ikkinchi qismida mazkur hududda joylashgan istirohat bog'iga yig'ilgan vodiylar xalqi, talabalarimiz Ilhomjon Jalilov va Muhammadjon Xo'janovlar ijrosidagi milliy va zamonaliv qo'shiqlarni tinglab, maroqli hordiq chiqarishdi. Shuningdek, safarmizning uchinchi kuni, Quva tumanida

joylashgan 1-sonli umumta'lim maktabida yosh tadbirkorlarmiz Bobur Ubaydullayev va Nodir Matlabovlar tomonidan maktab va kollej o'quvchilari orasidan tadbirkorlikka qiziqadigan yoshlar uchun mahorat darslari tashkil etildi. Yoshlarning tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishi, talab va takliflari atroficha o'rganilib, mutasaddi tashkilotlarga havola etildi.

"Istiqbol yoshlari" jamoasining kelgusi dasturlarida deyarli barcha viloyatlarga va xorijiy davatlarga ham safar

uyushtirish rejalashtirilgan. Maqsadimiz, o'zbek milliy san'atini, madaniyatini butun dunyoga keng targ'ib qilish.

Aziz tengdoshim, sen ham bizning safimizga qo'shil. Imkoniyatingni qo'lidan boy berma. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: Yoshlar – yurtning ertasi, kelajak poydevori.

Kelajak bizniki, marra bizniki!

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti

Musiqaning sehrli olami haqida gap ketganda, eng avvalo mening quloglarim ostida go'daklik chog'imda onajonim menga aytib bergan alla jarang sochadi desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki barchamiz onalarimizning mehrga to'la qalb navolari ya'ni allalarini tinglab unib-o'sganmiz.

MUSIQA — QALB TARBIYACHISI BO'LMOGI LOZIM

Mustaqillik yillarda milliy musiqa san'atiga ham boshqa sohalar singari katta e'tibor qaratildi. Milliy kuy-qo'shiqlarimiz, milliy taronalarimiz yoshlarimiz ongiga singib, ular milliy sharqona ohanglar ta'sirida kamol topa boshladi.

Mashhur bastakor Lyudvik Van Beethoven aytganidek: "Musika inson qalbini chaqmoq kabi yoritmoq kerak". Albatta bizning milliy musiqa san'atimizning ahamiyati ham shundan iboratki, yoshlarimiz milliy ruhda kamol topishiga, qolaversa, ularning ma'naviyati yuksalishida milliy musiqa san'atini hech narsaga qiyoslab bo'lmaydi. XXI – asr globallashuv davriga kelib ba'zi yoshlarimizda G'arb madaniyatiga oid musiqalarni tinglash, ularga talvasali rasqlarga tushish holatlari avj olayotganligi barchalarimizni tashvishga solmay qo'ymaydi. Bunday g'o'yaviy maqsadlari zid bo'lgan G'arb taronalari yoshlarining ma'naviyatini yemirilib borishiga sabab bo'lmoida desak, xato qilmagan bo'lamiz. Bizning odob-axloq qoidalarimizga zid bo'lgan bunday taronalarni yoshlarimizni hayotga yengil qarab, tor fikrlyaydigan, loqayd va beparvo bo'lib o'sishlariga sabab

bo'lmoqda. Bunday holatlarning davom etishi yoshlarimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizdan bexabar bo'lishlariga olib keladi. Albatta G'arb musiqalarini eshitayotgan hozirgi yoshlar bevosita ularga taqlid qilishadi. Bu hammaga har xil ta'sir qiladi va bu milliy madaniyatimizning shakllanishida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Biroq o'zimizning milliy musiqalar: "Tanovor", "Yor-yor", "Sumalakdan tosh topdim", "Boychechak" va yana shunga o'xshash asarlarni eshitib, avvalo o'zligimizni anglaysiz. Bolalik va beg'uborlikni, milliy g'ururni his qilamiz.

Men O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olar ekanman, kelajakda milliy va klassik musiqalarning sehrli jozibalarini yoshlar ommasiga keng targ'ib qilishdek, ezgu ishlarni o'z oldimga maqsad qilib qo'yanman. Zero, milliy madaniyatni boy xalqqa hech qanday mafkuraviy tahlidlar o'z bosimini o'tkaza olmaydi.

**Nilufar HASANOVA,
Kasb ta'limi: Xalq ijodiyoti
(vokal jamaoalariga rahbarlik)
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi**



ЁШЛАРГА ЯРАТИЛАЁТГАН ИМКОНИЯТЛАР

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ёшларга alovida эътибор қаратилмоқда. Уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш давлат сиёсати даражасига кўтарилиди. Ёшларнинг жамиятда ўз ўрнини топиши, иқтидорларини намоён килишлари учун кўпина танловлар ташкиллаштирилмоқда. Бу борада Ўзбекистон давлат санъат va madaniyat institutu Nukus filialiida "Йилнинг энг яхши iktidorli talabasi", "Йилнинг энг яхши talabchan talabasi" nominationlari bo'yinchada tanzilga start berildi.

Bu tanzilning natijalari 2018-2019 ўкув йилиning may oй-

ida jauniga etadi. Tanlovga xujjat topshirgan talabalarning ijodiy iшлари белгиланган тартибда кўриб чиқилиб, баҳоланади. Tanlovni ўtkaziшдан асосий мақсад, talabalarning iқтидорини, дарсдаги фаоллигини янада ошириш, жамиyatda ўз ўрнини топишига ёрдам бериш хисобланади.

Tanlovga start berilganligiga кўп вақт бўлмаган бўлса-да, xujjat topshirgan talabalarni soni kundan-kunga ortib bormoqda. Buz esa ularغا omad tilab қоламиз.

**Арухан ПАХРАТДИНОВА,
ЎзДСМИ Нукус филиали**

Тальим сифатини назорат қилиш бўлими бош мутахassisini

Ba'zan quyundek yoprilib kelgan bu savollarga o'zim ham qanday javob berishni bilmay qolaman... Sog'inch nimaligini bilasizmi Agar bilmasangiz, uyda sizning yo'lingizga intizor, nigoron bo'lgan onangizning ko'zlariga boqing. Shunda haqiqiy

sog'inch qanday bo'lishini his qilasiz. Mehrning o'tli va farahbaxsh totini-chi! Agar bu beqiyos hisni ham hech sezmagan bo'lsangiz, sukunat olamiga bir lahma sho'ng'ib, onangiz sizga aytgan har bitta so'zini eslangu va onagizning nim tabassum bilan sizga so'zlayotgani

ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

Gohida mana shunday o'y-xayollar yurakning tub-tubidagi armonli, alamlili hislarga aylanib qolganini bilmay qolarkan kishi. Mana shunday o'y-xayollar mening qalb nolalarimni chertib yubordi...

«ONAMGA AYTAR DIL SO'ZIM»

Ona, onajonim, onajonginam,
Yaxshi yuribsanmi bardam-baquvvat.
Notovon o'g'lingni erta-kech, har dam,
O'ylab, uyuqlaring qilma betoqat.

Meni o'layverib bo'lma hech ado,
Bunday qadrga men arzimayman-ku,
Seni yig'latSAM ham, qiyinasam hatto,
Meni bir bora sen qarg'amaysan-ku!

O'g'lim har kunimga yaradi, - deysan,
Ayt, qachon, yaradim, ayt qachon, ona.
Yetti farzand ko'rib biriga kuysang,
O'sha menman, ona, o'sha men, ona.

Ta'nalar yog'dirdim dushmanidan battar,
Lekin bir bora so'z aytmading nechun?
Qilgan xatolarim bolamdan qaytsa,
Men ham sendek shunda qolarman beun!

Ko'nglingni olmadim o'z bolang bo'lib,
O'zgalar mehriga qonib yashading.
Xo'riling kelganda yig'lading to'lib,
Shunda ham men uchun yonib yashading.

Bolam kiysin, - deding, yesin - deding sen,
O'zingni o'ylashga bo'lmadi vaqtin.
Sening borligingni bilganimda men

Meni deb, o'tgandi anchayin umring.

Tuhmat toshlarini otganda kimdir
Ko'ksingni ham qalqon qilding, onajon.
Va yoki ustidan kulganda taqdir
Shunda ham o'zingni qilarding qurban.

Ona, nechun buncha o'ylayverasan,

Aytginy "Mening qadrim bormi zig'ircha".

Faqat bolang uchun yashayverasan,

Sen ham bir bor yasha endi o'zing-chun.

Lekin bunday holat bo'lmaydi also,
Chunki u onadir, mehribon inson.
Dunyodan o'tsa ham qaysi bir ona,
Ruhi bilan qo'llar farzandin har on.

Shohrux ERGASHEV,
"Ashula va raqs" ta'lim yo'nalihi
2-bosqich talabasi

* * *

Demang, buncha bag'ring tosh deya,
Tosh bag'irlar qon qildi meni.
Essiz necha nodon kimsalar,
Atrofimda bosh bo'ldi meni.
Bu hayotning kimsalaridan,
Armon yig'lar zor ko'ksimda,
Ko'ksimda qolgan toshdan tosh,
Toshdan qolgan tosh ko'ksimda.
Osmonlar xo'p yirok mendan,
Dilginamga yaqinlarim,
Tosh ko'nglimni sindiromlas,
Oftobdan ham ilig'larim.
Armon titrar zor ko'ksimda,
Boshim toshga ko'yganda bosh,
Qulog'imda urib turdi,
Tosh ko'ksim o'kingan ko'zyosh.
Demang, buncha bag'ring tosh deya,
Gul ko'ksimda toshdek bardosh,
Murg'akkina shod ko'nglimga toshdek,
Tang'a bosdi bag'ri tosh.
O'zim kulsam ko'zim kulmas,
Pirpiraydi kiprik sarson.
Jismim tirik qo'g'irchoq,
Hayot ekan o'yinchoq.
Demang, buncha bag'ring tosh deya,
Kezi kelsa yupatolmasam.
O'kinmangiz bag'ring tosh deya,
Yig'laganda kuldiroldamasam.
Toshlararo urildi bosh,
Qalamimda haroratim,
Yorilganda tosh yuragim,
Qalamimda yaralarim.
Demang, buncha bag'ring tosh deya,
Gul ko'ksimda toshdek bardosh,
Armon yig'lar zor ko'ksimda
Ko'ksimda qolgan toshdan tosh.

Dilafruz ZOKIROVA,
"Qog'irchoq teatr aktyorligi" ta'lim
yo'nalihi 2-bosqich talabasi

- ❖ Oxir o'ylab bilsam, hayotimizni qiyinlashtiruvchi, vujudimizni tirnaguvchi alam bu - nafsimiz ekan.
- ❖ Hayot inson kabi o'zgaruvechan. Inson o'z hayotini qayerga boshlasa, hayot ham insonni o'sha yerga boshlaydi.
- ❖ Vaqt hamisha insonni boshqaradi. Chunki inson vaqtning izmida. Vaqt inson izmida emas.
- ❖ Kelajak har soniya, har daqiqqa va har kuni oldimizdan o'tib ketadi. Faqat biz bunga ahamiyat bermaymiz.
- ❖ Hayot bizni bir marta aldasa, biz o'zimizni ming marta aldaymiz.
- ❖ Sukut jumboq bo'lsa, arzim yechimdir.
- ❖ Hamma gap har kimga ham yoqavermaydi, har kim hammaga ham yoqavermaydi.
- ❖ Har bir inson o'zligini topib o'zini anglamaganicha, hayotidagi o'ziga tegishli bo'lgan yo'lni hech qachon topa olmaydi.
- ❖ Hayot insonlargaadolatsiz ko'ringani kabi, insonlar ham hayotga qilayotgan ishlari kabiadolatsiz ko'rindi.
- ❖ Ishonch - haqiqat va yolg'ondan hamisha ustun turadi.
- ❖ Bizning eng kuchli tomonimiz, bizga berilgan imkon hech kimga berilmaganligidir.
- ❖ Adolat insonlarni bir marotaba tanasidan judo etsa,adolatsizlik ming marta judo etadi.
- ❖ Dunyoda yashovchi har bir insonning o'z shaxsiy brendi mavjud.
- ❖ Agar oldingga maqsad qo'ymasang, o'zgalar maqsadi yo'lida xizmat qilasan.
- ❖ Unutish - aslida yo'qotish uchun emas, aksincha topish uchun zarur.
- ❖ Kimnidir yo'ldan o'tkazib qo'ya olmasang, uni also yo'lda ham qoldirma.
- ❖ Eslashlari uchun eslang, unutishlari uchun unuting.
- ❖ Uzoqqa bormoqchi bo'lsang, manzilni ko'zlashni yaqindan boshla.
- ❖ O'zningni haq deb bilishga haqli bo'l.
- ❖ Ba'zi haqiqatlarni aytgim keladi-yu lekin ularni yolg'onga aylanishidan qo'rqaman.

Doston HAMIDOV,

"Ijtimoiy-madaniy faoliyat" ta'lim yo'nalihi 1-bosqich talabasi

Ular uchrashishdi.

- Sen bilan vidolashish uchun keldim.
- Bilaman, ko'nglim sezgandi.
- Sukut.
- Meni kechir...
- Faqat kechirim so'ramang! Sizni aybdor yoki aybsiz ekanligingizni bilmadim-u, faqat kechirim so'ramang. Hammasi shundoqligicha qolsin!
- Sen bilan o'tkazgan lahzalar hayotimdageng unutilmas xotiralar bo'lib qoladi.
- Ba'zan, xotiralar baxtli bo'lish uchun xalaqit beradi. Keraksiz xotiralarni yoqib yuborish kerak.
- Sizdan bitta narsani so'rayman: meni sevganmidingiz?
- Sukut.
- Sevmagansiz! Agar meni mendek sevganingizda bu tuyg'u uchun kurashdingiz. Ketar chog' Ollohdan tilagim, qachonlardir o'zingiz topgan yorsiz menchalik seva olsin!

Qiz hammasini tashlab ketdi. Har doimgi uchrashuv xiyobonini, shirin xotiralarni, faqat hijronni unutolmadidi. Har kuni u panjara ortidagi otasiga ovqat tashiydi, ishga boradi, begona ko'chalarini kezadi. Ruhi yolg'izlanib qoldi.

Yigit katta harbiy bo'ldi. Sevgilisidan qolgan yodgorligini bir umrga uyining to'rida saqlab qo'ydi...

QOYILMAQOM QISH

Qish. Qaymoqdeq quyuq qor qoplandi. Qarg'alar qag'illab qorlarga qo'nishdi. Qarangki, qarg'alar qorni qumsabdi! Qorlar qavatma-qavat qatlanib, qirovli qish quvnoq qo'shig'idan qarg'alarni qoyil qoldirdi. Qish qaynagandan qaynadi. Qishning qoyilmaqom qo'shig'i qalbinga qadaldi. Qordan qo'llarim qaltirab, qamchilangandek qaltiraydi. Qayoqqa qarasam, qor... Qayin, qayrog'och qimirlamay, qishning qahridan qoqqan qoziqdek qotib qolgan... Quyosh quruqlikni qahraton qishdan qutqarib, qizitdi. Qizlar qorlarni qo'llariga quchoq-quchoq qilib, qolganlarni quvlashardi. Qizlarning quvnoq qiyqiriqlari quloglarini qitiqlardi. Qiziqlari qorbo'ron dan qizlarning qo'llari qaxshrab, qotib qolsa-da, qorni qo'llaridan qo'yishmasdi. Qorbo'ronni qo'yib, qorbobobo qilishga qaror qilishdi. Qorboboning qaddi-qomatini qordan, qo'llarini qamchidan, qoshlarini qora qog'oz qiyqimlaridan qilishdi. Qilgan qorbobolari dan quvonishdi. Qarabsizki, qosh qoraydi...

Umida USANOVA,

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalihi 3-bosqich talabasi

Aforizmlar



Ko'ngil satrlari

Biz charchadik, biz zerikdik,
Baxtlar kutib taqdir qo'ynida.
Nahot birga bo'lolmaymiz,
Hijron qattiq qiy nab qo'ydi-da.
Ko'ngil qoldi yolg'izlashib,
Armon bo'ldi orzulari.
Dilga endi umid berish,
Olisdagi visol bo'ynida.
Ollohimdan sabr tilab.
Yengib o'tsak sinovlarni.
Yoshlik o'tdi, umr o'tdi.
Bujon endi darddan to'ydi-da!
Biz kulishdik, yig'lab to'yidik,
Baxtlar kutib hayot qo'ynida...



Dostonbek RAHMATULLAYEV,
"San'at nazariyasi va tarixi
(kinoshunos)" mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir:

Nafisa RAIMQULOVA

Tahrir hay'ati:

Go'zal XOLIQULOVA

Hamadan ISMOILOV

Antonino KOSHELEVA

Rashid USNATOV

Mas'ul kotib:

Kurshida FAYZULLAYEVA

Muxbirlar klubu sardorlari:

Muharram BOZOROVA

Shavkat DO'STMUHAMMAD

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (0-371) 230-28-13.

www.dsni.uz; dsni_info@olam.uz

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.

Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz -1.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.

O'chami - A3, hajmi 2 bosma taboq.

Nusxasi - 1250 dona. Narxi kelishilgan narxda.

Chop etishga 3.12.2018 yilda topshirildi.

Sahifalovchi:

Dilmurod DO'STBEKOV

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrdra ro'yxatga olingan.